


ISSN 2181-0000
Doi Journal 10.26739/2181-0000

JOURNAL OF MAMUN SCIENCE



Volume 4, Issue 7 **2026**

«MA'MUN SCIENCE» JURNALI

4 JILD, 7 SON

ЖУРНАЛ «MAMUN SCIENCE»

TOM 4, HOMEP 7

JOURNAL OF «MAMUN SCIENCE»

VOLUME 4, ISSUE 7



«MA'MUN SCIENCE» JURNALI

ЖУРНАЛ «MA'MUN SCIENCE» | JOURNAL OF «MAMUN SCIENCE»

№7 (2026) DOI <http://dx.doi.org/10.26739/2181-0000-2026-7>

Бош муҳаррир: | Главный редактор:
Chief Editor:

Matyakubov Umidjon Raximovich
(i.f.d., prof.)

Бош муҳаррир ўринбосари: | Заместитель
главного редактора: | Deputy Chief Editor:

Xudoynazarov Egambergan Madrahimovich
(PhD., dots.)

TAHRIRIY MASLAHAT KENGASHI | EDITORIAL BOARD | РЕДАКЦИОННЫЙ СОВЕТ

FILOLOGIYA FANLARI

O'rozboyev Abdulla Durdibayevich

Filologiya fanlari doktori (DSc), professor

Axmedov Oybek Saporboyevich

Filologiya fanlari doktori (DSc), professor

O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti

Galiyeva Margarita Rafaelovna

Filologiya fanlari doktori (DSc), professor

O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti

Nasrullayeva Nafisa Zafarovna

Filologiya fanlari doktori (DSc), professor

Samarqand davlat chet tillari instituti

Cho'ponov Otanazar Otojovich

Filologiya fanlari doktori (DSc)

Urganch davlat universiteti

Yakubova Matluba Tajibayevna

Filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Ma'mun Universiteti NTM

Matnazarov Javlanbek Kabulovich

Filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Ma'mun Universiteti NTM

TARIX FANLARI

Anatoliy Sagdullayevich Sagdullayev

Tarix fanlari doktori, professor; akademik

O'zbekiston Respublikasi Fanlar

akademiyasining haqiqiy a'zosi

Ashirov Adhamjon Azimbayevich

Tarix fanlari doktori, professor,

O'zbekiston Respublikasi

Fanlar akademiyasi Tarix instituti.

Shaydurov Vladimir Nikolayevich

Tarix fanlari doktori, dotsent

Leningrad davlat universiteti Rossiya

Abdullayev Utkir Ismoilovich

Tarix fanlari doktori (DSc),

dotsent Urganch davlat universiteti

Matkarimova Sadoqat Maqsudovna

Tarix fanlari doktori (DSc), dotsent

Ma'mun Universiteti NTM

Abdullayev Timur Pulatovich

Tarix fanlari nomzodi, dotsent

Ma'mun Universiteti NTM

Abdalov Umidbek Matniyazovich

Tarix fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD),

Dotsent Ma'mun Universiteti NTM

Yunusxo'jayev Habibulla Zafar o'g'li

Tarix fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD),

Dotsent Ma'mun Universiteti NTM

PSIXOLOGIYA FANLARI

Shoumarov G'ayrat Baxromovich

Psixologiya fanlari doktori, professor; akademik

O'zbekiston Respublikasi

Fanlar akademiyasining haqiqiy a'zosi

Kryukova Tatyana Leonidovna

Psixologiya fanlari doktori, professor

Kostroma davlat universiteti Belorusiya

Karpinskiy Konstantin Viktorovich

Psixologiya fanlari doktori, professor

Grodno davlat universiteti Belorusiya

Urazbayeva Dilbar Abdullayevna

Psixologiya fanlari doktori (DSc), professor

Ma'mun Universiteti NTM

Jumaniyazova Nasiba Ramatillayevna

Psixologiya fanlari doktori (DSc), dotsent

Ma'mun Universiteti NTM

Nurullayeva Baxtigul Bobojonovna

Psixologiya fanlari nomzodi, dotsent Ma'mun

Universiteti NTM

IQTISODIYOT FANLARI

Ruzmetov Baxtiyar

Iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Ma'mun Universiteti NTM

Sherov Alisher Bakberganovich

Iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor

Ma'mun Universiteti NTM

Voronsova Yuliya Vladimirovna

Iqtisodiyot fanlari nomzodi

Moskva davlat boshqaruvi universiteti

Jabborov Umarbek Rustambekovich

Iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Ma'mun Universiteti NTM

Cho'ponov San'at Otanazarovich

Iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Ma'mun Universiteti NTM

Niyazmetov Islambek Masharipovich

Iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), dotsent

Ma'mun Universiteti NTM

PEDAGOGIKA VA FALSAFA FANLARI

Sardor Sharifzoda O'razboy Tabib o'g'li

Pedagogika fanlari bo'yicha falsafa
doktori (PhD), professor

Ma'mun Universiteti NTM

Adilov Zafar Yunusovich

Falsafa fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Ma'mun Universiteti NTM

Boltayev Abdurahim Amanovich

Falsafa fanlari doktori, dotsent

Ma'mun Universiteti NTM

Zoirov Erkin Xalilovich

Falsafa fanlari doktori, dotsent

Buxoro davlat texnika universiteti

Nurullayeva Baxtigul Bobojonovna

Psixologiya fanlari nomzodi, dotsent Ma'mun
Universiteti NTM

TIBBIYOT FANLARI

Yuldashev Baxrom Sobirjanevich

Tibbiyot fanlari doktori (DSc), dotsent

Ma'mun Universiteti NTM

Abdullayev Ravshanbek Babajonovich

Tibbiyot fanlari doktori, professor

Toshkent tibbiyot akademiyasi Urganch filiali

Esamuratov Aybek Ibragimovich

Tibbiyot fanlari doktori (DSc), dotsent

Toshkent tibbiyot akademiyasi Urganch filiali

Samandarova Barno Sultonovna

Biologiya fanlari nomzodi, dotsent

Toshkent tibbiyot akademiyasi Urganch filiali

Tajiyeva Zebo Baxodirovna

Tibbiyot fanlari falsafa doktori (PhD)

Toshkent tibbiyot akademiyasi Urganch filiali

ILMIY JURNAL TEXNIK KOTIBI

Yunusxo'jayev Habibulla Zafar o'g'li

Ma'mun Universiteti NTM

Журнал включен в перечень ВАК национальных научных изданий, рекомендуемых для публикации
основных научных результатов диссертаций по медицинским наукам постановлением
№ 01-08/3068/17 от 27 сентября 2024 г.

Page Maker | Верстка | Саифаловчи: X. Mirzaxmedov

Контакт редакций журналов. www.tadqiqot.uz

ООО Tadqiqot город Ташкент,
улица Амира Темура пр.1, дом-2.

Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; Email: info@tadqiqot.uz

Тел: (+998-94) 404-0000

Editorial staff of the journals of www.tadqiqot.uz

Tadqiqot LLC the city of Tashkent,
Amir Temur Street pr.1, House 2.

Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; Email: info@tadqiqot.uz

Phone: (+998-94) 404-0000

TARIX

1. **Mo‘minjon Salayev Atabayevich**
BAQTRIYA HUJJATLARIDAGI TURKIY ISMLAR VA ULARNING TARIXIY TALQINI.....7
2. **Tilovboyeva Mardona Aybekovna**
O‘RTA OSIYODA TOSH DAVRINING ILK BOSQICHI XUSUSIYATLARI.....19
3. **Акрамова Ф.А.**
СОЦИАЛЬНАЯ ПОЛИТИКА В ОТНОШЕНИИ ЖЕНЩИН-РАБОТНИЦ ЛЁГКОЙ ПРОМЫШЛЕННОСТИ ФЕРГАНСКОЙ ДОЛИНЫ (1946-1960 ГГ.).....22
4. **Файзуллаев Мансур Хайруллаевич**
СПЕЦИАЛИЗАЦИЯ КАРАКУЛЕВОДСТВА В ЖИВОТНОВОДЧЕСКИХ КОМПЛЕКСАХ ЮЖНОГО УЗБЕКИСТАНА И ЕЁ СИСТЕМНЫЕ ПРОБЛЕМЫ (1960-1980 ГГ.).....30
5. **Berdiyev Abduvali Abdug‘aniyevich**
QO‘NG‘IROTTLAR SULOLASI DAVRIDA XIVA XONLIGINING TASHQI SIYOSIY ALOQALARI: SHAKLLANISHI, YO‘NALISHLARI VA TARIXIY AHAMIYATI.....37
6. **Berdiyev Abduvali Abdug‘aniyevich**
XVIII-XIX ASRLARDA XIVA XONLIGINING ERON VA ROSSIYA BILAN DIPLOMATIK VA IJTIMOY-SIYOSIY MUNOSABATLARI.....47
7. **Matniyozov Sarvarbek Sanatbek o‘g‘li**
“XORAZM OKRUGIDA YIRIK MEHNATSIZ XO‘JALIKLARNI TUGATISH TO‘G‘RISIDA”GI DEKRETNING TAHLILI.....56
8. **Kenjayev Hasan Atanazarovich**
XV-XVI ASRLARDA SAROY KUTUBXONASINI BOSHQARISH AMALIYOTI: “BADOYE’ UL-VAQOE” ASARIDAGI MANSHUR MISOLIDA.....64
9. **Қадамбаев III.**
ЎРТА ЗАРАФШОНДА ТОШ ДАВРИ ТУРАР-ЖОЙЛАРИНИ ЎРГАНИЛИШ ТАРИХИ.....70
10. **Matkarimova Nazokat Maksudovna, Matnazarova Dilorom Radjabbaevna**
XORAZMLIKLARNING AN‘ANAVIY MADANIYATIDA OILA VA OILAVIY ETIKET.....73

IQTISOD

1. **Radjabova Mavluda Ergash Qizi**
MINTAQADA QISHLOQ XO‘JALIGI MAHSULOTLARINING EKSPORT SAMARADORLIGINI OSHIRISH XORIJ MAMLAKATLARI TAJRIBASI VA O‘ZBEKISTON SHAROITIDA QO‘LLASH IMKONIYATLARI.....77
2. **Хусаинов Джахонгир Баходирович, Мухаммадсолиев Миродилжон Мирзохид угли**
КАСКАДНО-ЦИКЛИЧЕСКАЯ МОДЕЛЬ ЦЕНООБРАЗОВАНИЯ И УПРАВЛЕНИЯ ФИНАНСОВЫМ РИСКОМ ОБРАЗОВАТЕЛЬНЫХ ПРОГРАММ ВЫСШЕГО УЧЕБНОГО ЗАВЕДЕНИЯ.....84

3. Matyakubov Umidjon Raximovich, Qodirova Dilfuza Sodiqjon qizi, Kodirova Feruza Sodiqjonovna	
TURIZM XIZMATLARI BOZORINI RIVOJLANTIRISHNING OBYEKTIV ZARURLIGI VA AHAMIYATI: STATISTIK TAHLIL VA KONSEPTUAL MODEL ASOSIDA.....	89

FILOLOGIYA

1. Adizova Surayyo Abduxoligovna	
INGLIZ VA O'ZBEK TILLARIDA KOGNITIV TERMINOLOGIYANING SHAKLLANISH TAMOIYILLARI (TIBBIY TERMINLAR MISOLIDA).....	97
2. Shoymardanova Dilfuza Baxtiyorovna	
ERKIN VOHIDOV ASARLARIDA SINTAKTIK PARALLELIZM VA POETIK INDIVIDUALLIK.....	103
3. Khudoyshekur Makhmudov	
TOURISM DISCOURSE AS AN OBJECT OF LINGUISTIC RESEARCH: A COMPARATIVE LINGUISTICS PERSPECTIVE.....	107

PEDAGOGIKA

1. Sh.E.Yakubova	
“OLIIY TA'LIM MUASSASALARIDA TALABA QIZLAR IJTIMOIIY FAOLLIGINI KOMPETENTLIK ASOSIDA RIVOJLANTIRISHNING PEDAGOGIK XUSUSIYATLARI”..	112
2. Kalandarova Madina Baxadirovna	
IJTIMOIIY QO'LLAB-QUVVATLASHNING TUG'RUQDAN KEYINGI DAVRDAGI AYOLLAR HAYOT SIFATI BILAN BOG'LIQLIGI.....	116
3. Kasimova Xulkar Atabayevna	
NOGIRON FARZANDLI TURLI YOSHDAGI ONALARNING PSIXOLOGIK FAROVONLIGI VA EMOTSIONAL O'ZINI-O'ZI NAZORAT QILISH O'RTASIDAGI KORRELYATSION BOG'LANISHLAR.....	120
4. Абибуллаев Арсен Редванович	
ОСОБЕННОСТИ ВОССТАНОВИТЕЛЬНЫХ ПРОЦЕДУР СЕМИБОРОК В СТРУКТУРЕ ТРЕНИРОВОЧНОГО И СОРЕВНОВАТЕЛЬНОГО ПРОЦЕССА.....	124
5. Шарипова Мадина	
ОРГАНИЗАЦИОННО-УПРАВЛЕНЧЕСКИЕ МЕХАНИЗМЫ АДАПТАЦИИ ЗАРУБЕЖНОГО ОПЫТА ДУАЛЬНОГО ОБРАЗОВАНИЯ К СИСТЕМЕ ВЫСШЕГО ОБРАЗОВАНИЯ РЕСПУБЛИКИ УЗБЕКИСТАН.....	129
6. Pulatova Zulfiya Abduazizovna	
OLIIY HARBIY TA'LIM DA KURSANTLARNING KOMMUNIKATIV KOMPETENSIYASINI BAHOLASH METODIKASINI HKT-INDEKSI ASOSIDA TAKOMILLASHTIRISH.....	136
7. Xasanboyev Javohir	
O'ZBEKISTON TA'LIM TIZIMIDA JADID PEDAGOGIKASIDAN FOYDALANISH ISTIQBOLLARI.....	145

Matyakubov Umidjon Raximovich

Ma'mun universiteti ilmiy ishlar va innovatsiyalar bo'yicha prorektor

e-mail:matyakubov_umidjon@mamunedu.uz

Qodirova Dilfuza Sodiqjon qizi

Abu Rayhon Beruniy nomidagi Urganch davlat universiteti mustaqil izlanuvchisi

e-mail:dqodirova19@gmail.com

Kodirova Feruza Sodiqjonovna

Abu Rayhon Beruniy nomidagi Urganch davlat universiteti mustaqil izlanuvchisi

e-mail:kodirovaferuza196@gmail.com

TURIZM XIZMATLARI BOZORINI RIVOJLANTIRISHNING OBYEKTIV ZARURLIGI VA AHAMIYATI: STATISTIK TAHLIL VA KONSEPTUAL MODEL ASOSIDA



<http://dx.doi.org/10.5281/zenodo.21980062>

Annotatsiya. Maqolada turizm xizmatlari bozorini rivojlantirishning obyektiv zarurligi va uning milliy iqtisodiyotdagi ahamiyati ilmiy asoslangan. O'zbekiston Respublikasi Milliy statistika qo'mitasi va Turizm qo'mitasining 2017-2026-yillik rasmiy ma'lumotlari asosida soha dinamikasi tahlil qilinib, kuchli-zaif tomonlar, imkoniyat-tahdidlar SWOT-jadval ko'rinishida taqdim etilgan. Rivojlantiruvchi omillarni ta'sir mexanizmi va natija ko'rsatkichlari bilan bog'lovchi "omil-samara" konseptual modeli ishlab chiqilib, mas'ul institutlar va muddatlar bo'yicha amaliy tavsiyalar berilgan.

Kalit so'zlar: turizm xizmatlari bozori, statistik tahlil, SWOT-tahlil, omil-samara modeli, mintaqaviy rivojlanish, davlat-xususiy sheriklik.

ОБЪЕКТИВНАЯ НЕОБХОДИМОСТЬ И ЗНАЧЕНИЕ РАЗВИТИЯ РЫНКА ТУРИСТСКИХ УСЛУГ: НА ОСНОВЕ СТАТИСТИЧЕСКОГО АНАЛИЗА И КОНЦЕПТУАЛЬНОЙ МОДЕЛИ

Аннотация. В статье научно обоснована объективная необходимость развития рынка туристских услуг и его значение в системе национальной экономики. На основе официальных данных Государственного комитета по статистике и Комитета по туризму Республики Узбекистан за 2017-2026 годы проанализирована динамика отрасли, представлены сильные и слабые стороны, возможности и угрозы в виде SWOT-таблицы. Разработана концептуальная модель «фактор-эффект», связывающая факторы развития с механизмом их воздействия и результативными показателями, даны практические рекомендации в разрезе ответственных институтов и сроков реализации..

Ключевые слова: рынок туристических услуг, статистический анализ, SWOT-анализ, модель «фактор-эффект», региональное развитие, государственно-частное партнёрство.

THE OBJECTIVE NECESSITY AND SIGNIFICANCE OF DEVELOPING THE TOURISM SERVICES MARKET: BASED ON STATISTICAL ANALYSIS AND A CONCEPTUAL

Abstract. The article scientifically substantiates the objective necessity of developing the tourism services market and its significance for the national economy. Based on official data from the State Statistics Committee and the Tourism Committee of the Republic of Uzbekistan for 2017-2026, the sector's dynamics are analyzed, and its strengths, weaknesses, opportunities, and threats are presented in a SWOT table. A conceptual "factor-effect" model is developed, linking development factors with their impact mechanism and resulting indicators, and practical recommendations are provided by responsible institutions and implementation timelines..

Keywords: tourism services market, statistical analysis, SWOT analysis, factor-effect model, regional development, public-private partnership.

Kirish. Jahon xo'jaligining tarkibiy jihatdan o'zgarib borishi, iqtisodiyotning xizmatlar sektori hisobiga kengayishi turizm sohasini zamonaviy dunyo iqtisodiyotining yetakchi va eng jadal rivojlanayotgan tarmoqlaridan biriga aylantirdi. Turizm nafaqat mustaqil xizmat turi, balki transport, mehmonxona xo'jaligi, umumiy ovqatlanish, savdo, madaniyat, moliya va aloqa sohalarini o'zaro bog'lovchi kompleks tizim sifatida namoyon bo'lmoqda. Ushbu xususiyat turizm xizmatlari bozorini milliy iqtisodiyotning strategik ahamiyatga ega bo'g'inlaridan biriga aylantiradi.

O'zbekiston Respublikasida so'nggi yillarda turizm sohasini rivojlantirishga qaratilgan tizimli islohotlar amalga oshirilmoqda: vizalar rejimining soddalashtirilishi, elektron viza tizimining joriy etilishi, turizm infratuzilmasini modernizatsiya qilish, xalqaro aviaqatnovlar geografiyasini kengaytirish, shuningdek kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni rag'batlantirish. Shu bilan birga, turizm xizmatlari bozorining institutsional asoslari, raqobatbardosh muhitni shakllantirish mexanizmlari va sifat menejmenti tizimlari hali ham takomillashtirishni talab etadi.

Ilmiy muammoning qo'yilishi. Mavjud ilmiy adabiyotlarni tahlil qilish shuni ko'rsatadiki, turizm xizmatlari bozorini rivojlantirishning zarurligi ko'pincha deklarativ tarzda, aniq statistik asosga tayanmagan holda yoritiladi; omillar orasidagi o'zaro bog'liqlik va ularning amaliy natijalarga ta'sir mexanizmi yetarlicha tizimlashtirilmagan, sohaning kuchli va zaif tomonlari, imkoniyat hamda tahdidlari struktura shaklida taqdim etilmaydi. Bu esa sohani rivojlantirish bo'yicha qabul qilinayotgan boshqaruv qarorlarining ilmiy asoslanganlik darajasini pasaytiradi. Shu sababli mazkur tadqiqotning ilmiy muammosi - turizm xizmatlari bozorini rivojlantirishning obyektiv zaruriyatini aniq statistik ma'lumotlar va tizimlashtirilgan konseptual model asosida asoslashdan iborat.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi. Mazkur tadqiqotning ilgari nashr etilgan ishlardan farqli, o'ziga xos ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat: birinchidan, O'zbekiston Respublikasi Milliy statistika qo'mitasi va Turizm qo'mitasining 2017-2026-yillar bo'yicha rasmiy ma'lumotlari asosida turizm sohasining dinamik ko'rsatkichlari tizimli taqqosladim; ikkinchidan, sohaning kuchli va zaif tomonlari, imkoniyat hamda tahdidlarini aniqlashning tuzilmaviy SWOT-modeli ishlab chiqdim; uchinchidan, turizm xizmatlari bozorini rivojlantiruvchi olti omil guruhini ularning ta'sir mexanizmi va kuzatiladigan natija ko'rsatkichlari bilan bog'lovchi "omil-samara" konseptual modelini taklif qildim; to'rtinchidan, ilmiy-amaliy tavsiyalar mas'ul institutlar, amalga oshirish muddati va kutilayotgan natija ko'rsatkichlari kesimida aniqlashtirdim, bu esa ularning amaliyotga tatbiq etilish imkoniyatini oshiradi.

Mazkur maqolaning maqsadi turizm xizmatlari bozorini rivojlantirishni taqozo etuvchi obyektiv omillarni statistik ma'lumotlar va tuzilmaviy tahlil vositalari (SWOT, omil-samara modeli) asosida tizimlashtirish hamda sohani yanada rivojlantirish bo'yicha amalga oshirilishi mumkin bo'lgan ilmiy asoslangan takliflar ishlab chiqishdan iborat.

Turizm xizmatlari bozorining nazariy-uslubiy asoslari xorijiy va mahalliy olimlarning ko'plab ilmiy tadqiqotlarida yoritilgan. Turizm iqtisodiyoti nazariyasini rivojlantirgan xorijiy tadqiqotchilar turizmni daromad keltiruvchi eksport tarmog'i, mintaqaviy rivojlanish drayveri va bandlikni ta'minlovchi omil sifatida talqin etadilar [7]. Turizm menejmenti va marketingi sohasidagi

tadqiqotlarda turizm xizmatlari bozori tovar bozorida farqli xususiyatlarga ega ekanligi ta'kidlanadi: xizmatning notarif holati, uni ishlab chiqarish va iste'mol qilish jarayonlarining bir vaqtda kechishi, saqlab bo'lmazligi va sifat ko'rsatkichlarining sub'ektivligi [5]. Mustaqil davlatlar, jumladan O'zbekiston olimlari tomonidan olib borilgan tadqiqotlarda turizm salohiyatidan samarali foydalanish, milliy turizm brendini shakllantirish, mintaqaviy turizm klasterlarini rivojlantirish va raqamli texnologiyalarni turizm sohasiga joriy etish masalalari keng yoritilgan [9]. Shu bilan birga, turizm xizmatlari bozorini rivojlantirishning obyektiv zarurligini aniq statistik ko'rsatkichlar va tuzilmaviy tahlil vositalari bilan asoslovchi kompleks tadqiqotlar hali yetarli emasligi mazkur mavzuning dolzarbligini yanada oshiradi.

Tadqiqot metodologiyasi. Tadqiqot jarayonida ilmiy bilishning umumnazariy va maxsus uslublaridan foydalandim: mantiqiy umumlashtirish, qiyosiy va statistik tahlil, monografik kuzatish, shuningdek turizm bozorining tarkibiy elementlarini o'rganishda tizimli-tarkibiy yondashuv. Turizm xizmatlari bozorining 2017-2026-yillardagi dinamikasini baholash uchun O'zbekiston Respublikasi Milliy statistika qo'mitasi (stat.uz), Turizm qo'mitasi va Iqtisodiy tadqiqotlar va islohotlar markazining rasmiy ma'lumotlarini qiyosiy-statistik tahlil qildim [6; 10; 11]. Sohaning kuchli va zaif tomonlari, imkoniyat va tahdidlarini aniqlashtirish uchun SWOT-tahlil metodikasidan foydalanilib, natijalar tuzilmaviy jadval ko'rinishida shakllantirdim [8]. Turizm xizmatlari bozorini rivojlantiruvchi omillarni tizimlashtirish va ularning natijaviy ko'rsatkichlar bilan bog'liqligini aniqlash maqsadida "omil-samara" konseptual modelini ishlab chiqdim: bunda har bir omil guruhi (iqtisodiy, ijtimoiy, madaniy-ma'rifiy, institutsional, innovatsion-texnologik, ekologik) ta'sir mexanizmi va statistik jihatdan kuzatiladigan yoki maqsadli natija ko'rsatkichi bilan o'zaro bog'langan. Tadqiqotning ma'lumot bazasini me'yoriy-huquqiy hujjatlar, xalqaro tashkilotlar va milliy statistika idoralarining metodik materiallari hamda mavzuga oid ilmiy adabiyotlar tashkil etadi [1; 2; 7; 9].

Tahlil va natijalar. Turizm xizmatlari bozorining iqtisodiy mohiyati. Turizm xizmatlari bozori - bu turistik ehtiyojlarni qondirishga qaratilgan xizmatlarni ishlab chiqaruvchi (turoperatorlar, mehmonxonalar, transport tashkilotlari, ekskursiya xizmatlari va boshqalar) hamda ushbu xizmatlarni iste'mol qiluvchi (sayyohlar) sub'ektlar o'rtasidagi iqtisodiy munosabatlar majmuasidir. Ushbu bozorning o'ziga xos xususiyati shundaki, u bir vaqtning o'zida bir necha tarmoqlar faoliyatini birlashtiruvchi kompleks xarakterga ega bo'lib, "ko'p tarmoqli multiplikator effekti" orqali namoyon bo'ladi: bir sayyoh tomonidan sarflangan mablag' transport, mehmonxona, umumiy ovqatlanish, savdo va xizmat ko'rsatish sohalari orqali iqtisodiyotning turli bo'g'inlariga tarqaladi [5]. Turizm xizmatlari bozorini rivojlantirishning obyektiv zarurligi, avvalo, uning yalpi ichki mahsulotga qo'shgan hissasi, valyuta tushumlarini ta'minlash salohiyati va tashqi savdo balansini yaxshilashdagi o'rni bilan izohlanadi [4].

O'zbekistonda turizm sohasining statistik dinamikasi (2017–2026). Yuqorida keltirilgan nazariy qoidalarining amaliy asoslanganligini ko'rsatish maqsadida O'zbekiston Respublikasi Milliy statistika qo'mitasi, Turizm qo'mitasi va Iqtisodiy tadqiqotlar va islohotlar markazining rasmiy ma'lumotlari asosida sohaning asosiy ko'rsatkichlari dinamikasi tahlil qilindi (1-jadval).

1-jadval.

O'zbekistonda turizm sohasining asosiy ko'rsatkichlari dinamikasi

Ko'rsatkich	2017-yil	2023-yil	2024-yil	2025–2026-yy. (operativ ma'lumot)
Xorijiy sayyohlar soni	2,5 mln	6,63 mln	8,2 mln (+24,2%)	2025, 5 oy: 4,2 mln (+48,2%); 2026, 4 oy: 4,0 mln (+30%)
Ichki sayyohlar soni	10,6 mln	-	22 mln	2030-yilga maqsad: 20 mln xorijiy sayyoh
Sohadagi bandlik	187 ming kishi	-	391 ming kishi	2026–2027 yy.: qo'shimcha 40 ming ish o'rni rejalashtirilgan
YaIMdagi ulush	-	-	1,7%	2030-yilga maqsad: 7%

Xizmatlar eksporti	-	3,4 mlrd. AQSH dollari	7 yillik (2017–2024) jami: 10,7 mlrd. AQSH dollari	2026, 4 oyda: 1,6 mlrd. AQSH dollarilik xizmat ko'rsatilgan
Turoperatorlar soni	-	-	3 686 ta	2026: 4 600 tadan ortiq
Joylashtirish vositalari	1 046 ta	-	≈5 520 ta (2024 boshida)	2024-yilda 600 ta yangi ob'ekt ochish rejalashtirilgan
Mehmonxona xona fondi	-	-	≈23 000 xona	Shundan taxminan 3-3,5 ming xona xalqaro sifat standartlariga javob beradi
Viza rejimi	-	-	93 mamlakat uchun vizasiz	56 mamlakat uchun elektron viza tizimi
Infratuzilmaga investitsiya	-	-	2024: 400 mlrd so'm	2025: 710 mlrd so'm; 2026-yilga: 1,16 trln so'm ajratilgan

Manba: [4; 6; 10; 13; 14; 15] asosida muallif tomonidan tuzilgan.

Jadval ma'lumotlaridan ko'rinib turibdiki, 2017-2024-yillar mobaynida xorijiy sayyohlar soni qariyb 3,3 barobarga (2,5 mlndan 8,2 mlnga), sohadagi bandlik esa 2 barobarga (187 ming kishidan 391 ming kishiga) oshgan. Shu bilan birga, turizmning YaIMdagi ulushi hozirgi kunda atigi 1,7 foizni tashkil etib, davlat tomonidan 2030-yilga qadar bu ko'rsatkichni 7 foizgacha yetkazish maqsad qilib qo'yilgan. Bu - sohaning o'sish sur'atlari yuqori bo'lishiga qaramay, uning milliy iqtisodiyotdagi salmog'i hali baynalmilal amaliyotdagi ko'rsatkichlardan (rivojlangan turistik davlatlarda 8-12%) sezilarli darajada past ekanligini, demak - rivojlantirish uchun obyektiv xazira mavjudligini tasdiqlaydi.

SWOT-tahlil natijalari. Statistik tahlil natijalarini tizimlashtirish va sohaning strategik holatini baholash maqsadida SWOT-tahlil o'tkazildi (2-jadval).

2-jadval.

O'zbekiston turizm xizmatlari bozorining SWOT-tahlili

Kuchli tomonlar (Strengths)	Zaif tomonlari (Weaknesses)
-boy tarixiy-madaniy va me'moriy meros, YuNESKO ob'ektlari; -93 mamlakat uchun vizasiz, 56 mamlakat uchun elektron viza tizimi [6]; -davlat tomonidan faol subsidiyalash va soliq-bojxona imtiyozlari [13]; - nisbatan past narxlar darajasi va xavfsizlik ko'rsatkichi; - 2017–2024-yillarda xorijiy sayyohlar oqimining barqaror o'sishi (~3,3 barobar) [6].	- xalqaro standartlarga mos joylashtirish vositalarining yetishmasligi (≈23 ming xonadan atigi 3-3,5 ming xonasi zamonaviy talablarga javob beradi) [4]; - malakali kadrlar tanqisligi; - mintaqalar bo'yicha turizm infratuzilmasining notekis rivojlanganligi; - milliy brend va marketing strategiyasining kuchsizligi; - YaIMdagi ulushning pastligi (1,7%) [6].
Imkoniyatlar (Opportunities)	Tahdidlar (Threats)
-2030-yilga qadar sayyohlar oqimini 20 mln kishigacha, YaIMdagi ulushni 7%gacha oshirish davlat dasturi [12]; - raqamli texnologiyalar va sun'iy intellektni turizm xizmatlariga joriy etish salohiyati; - mintaqaviy turizm klasterlarini shakllantirish; - mehmonxona qurilishida franchayzing va	- mintaqadagi geosiyosiy beqarorlik va valyuta kursi o'zgaruvchanligi; - qo'shni davlatlar (Qozog'iston, Qirg'iziston) bilan kuchayib borayotgan raqobat; - infratuzilma loyihalarining davlat byudjetiga yuqori bog'liqligi [10]; - turistik hududlarga ekologik yuk va tabiiy resurslarga bosimning ortishi.

investitsion subsidiya dasturlari [13].

Manba: [4; 6; 10; 12; 13] ma'lumotlari asosida muallif tomonidan tuzilgan.

Ijtimoiy-mintaqaviy jihatlar. Turizm xizmatlari bozorining rivojlanishi mintaqalar o'rtasidagi ijtimoiy-iqtisodiy tafovutlarni kamaytirishning muhim vositasi hisoblanadi. Tabiiy-geografik va tarixiy-madaniy salohiyatga ega, biroq sanoat ishlab chiqarishi nisbatan rivojlanmagan hududlarda turizm mahalliy aholi bandligini ta'minlashning eng samarali yo'llaridan biriga aylanadi - bu holat 1-jadvalda keltirilgan bandlik ko'rsatkichining 2017-2024-yillarda ikki barobarga o'sishida ham o'z aksini topgan. Mehmonxona xo'jaligi, umumiy ovqatlanish, hunarmandchilik, ekskursiya xizmatlari kabi sohalarda yangi ish o'rinlarining yaratilishi, ayniqsa qishloq joylarida va kichik shaharlarda, aholi turmush darajasini oshirishga xizmat qiladi. Bundan tashqari, 2022-2024-yillarda ishga tushirilgan "Tashkent city", Samarqand turizm markazi, "Afsonalar vodiysi", "Arda Xiva" kabi yirik turistik ob'ektlar mintaqaviy turizm infratuzilmasini kengaytirishga xizmat qilmoqda [6].

Madaniy-ma'rifiy va milliy qadriyatlarni saqlash jihati. Turizm xizmatlari bozorining rivojlanishi milliy madaniy meros ob'ektlarini asrash va targ'ib qilish uchun qo'shimcha moliyaviy manba yaratadi. Tarixiy-me'moriy yodgorliklardan tushayotgan turizm daromadlari ularni ta'mirlash, saqlash va kelgusi avlodlarga yetkazish uchun zarur mablag'larni shakllantirishga xizmat qiladi. Shu bilan birga, xalqaro turizm oqimlarining kengayishi mamlakatning madaniy-tarixiy merosini jahon hamjamiyatiga tanishtirish, milliy o'ziga xoslikni targ'ib qilish va davlatning xalqaro nufuzini oshirish vositasi sifatida ham muhim ahamiyat kasb etadi [7].

Institutsional va infratuzilmaviy omillar. Turizm xizmatlari bozorining barqaror rivojlanishi ko'p jihatdan institutsional muhitning sifatiga bog'liq. 2023-yilda qabul qilingan O'z DSt 3296:2023 "Turistik xizmatlar. Joylashtirish vositalari. Ball tizimi bo'yicha tasniflash" davlat standarti mehmonxonalarni yulduzlash tizimini xalqaro talablarga muvofiqlashtirish yo'nalishidagi muhim qadam bo'ldi [14]. Shu bilan birga, transport infratuzilmasining rivojlanganlik darajasi, mehmonxona fondining yetarliligi va sifati, raqamli xizmatlarning (onlayn bron qilish tizimlari, elektron to'lovlar) joriy etilishi turizm bozorining raqobatbardoshligini belgilovchi muhim omillardir. 1- va 2-jadvallarda keltirilgan ma'lumotlar shuni ko'rsatadiki, joylashtirish vositalari sonining o'sishiga qaramay, ularning sifat tarkibi hali ham xalqaro talablarga to'liq javob bermaydi, bu esa institutsional tartibga solish mexanizmlarini yanada takomillashtirishni taqozo etadi.

Turizm xizmatlari bozorini rivojlantirishni taqozo etuvchi omillarning "omil-samara" konseptual modeli. O'tkazilgan statistik va SWOT-tahlil natijalarini umumlashtirish asosida turizm xizmatlari bozorini rivojlantirishning obyektiv zaruriyatini belgilovchi omillar oltita guruhga tizimlashtirdi hamda har bir guruh uchun ta'sir mexanizmi va kuzatiladigan/maqsadli natija ko'rsatkichi aniqladim (3-jadval). Ushbu model tadqiqotning asosiy ilmiy natijasi sifatida qaraladi, chunki u omillarni nafaqat sanab o'tish, balki ularni o'lchanadigan natija ko'rsatkichlari bilan bog'lash imkonini beradi.

3-jadval.

Turizm xizmatlari bozorini rivojlantiruvchi omillarning "omil-samara" modeli

Omil guruhi	Ta'sir mexanizmi	Kuzatiladigan / maqsadli natija ko'rsatkichi
Iqtisodiy	Eksportga yo'naltirilgan xizmat, ko'p tarmoqli multiplikator effekti	Xizmatlar eksporti - 10,7 mlrd. AQSH dollari (2017–2024); YaIMdagi ulush - 1,7% → 7% (2030)
Ijtimoiy	Mahalliy bandlikni ta'minlash, kichik va o'rta biznesni rag'batlantirish	Bandlik -187 ming → 391 ming kishi (2017-2024); qo'shimcha 40 ming ish o'rni (2026-2027)
Madaniy-ma'rifiy	Meros ob'ektlarini asrash va xalqaro tanishtirish	Xorijiy sayyohlar soni - 2,5 mln → 8,2 mln (2017-2024)
Institutsional	Me'yoriy-huquqiy baza, standartlashtirish, litsenziyalash	O'z DSt 3296:2023 standarti; 93 mamlakat uchun vizasiz rejim, 56

		mamlakat uchun e-viza
Innovatsion-texnologik	Raqamlashtirish, onlayn platformalar, sun'iy intellekt	Turoperatorlar soni - 3 686 (2024) → 4 600+ (2026)
Ekologik	Barqaror turizm shakllari, tabiiy resurslardan oqilona foydalanish	Ekoturizm va agroturizm ob'ektlari sonining o'sish dinamikasi (statistik kuzatuv zarur)

Manba: 1- va 2-jadval ma'lumotlari asosida muallif tomonidan ishlab chiqilgan.

Xulosa va takliflar

O'tkazilgan tadqiqot natijalari turizm xizmatlari bozorini rivojlantirishning obyektiv zaruriyati bir qancha o'zaro bog'liq iqtisodiy, ijtimoiy, madaniy va institutsional omillar bilan belgilanishini, bu esa statistik ma'lumotlar (1-jadval) va SWOT-tahlil natijalari (2-jadval) bilan tasdiqlanishini ko'rsatdi. Turizm sohasi ko'p tarmoqli xarakterga ega bo'lib, uning rivojlanishi nafaqat sohaning o'zida, balki unga bog'liq bo'lgan boshqa tarmoqlarda ham ijobiy iqtisodiy samara beradi. Shu bilan birga, sohaning YaIMdagi ulushi (1,7%) hali ham davlat belgilagan maqsadli ko'rsatkichdan (7%) sezilarli darajada past bo'lib, bu - rivojlantirish salohiyatining hali to'liq ishga solinmaganligidan dalolat beradi. Tadqiqot natijalariga va ishlab chiqilgan "omil-samara" modeliga asoslanib, turizm xizmatlari bozorini yanada rivojlantirish bo'yicha quyidagi ilmiy-amaliy takliflar mas'ul institutlar, amalga oshirish muddati va kutilayotgan natija ko'rsatkichlari kesimida ishlab chiqdim. (4-jadval).

4-jadval.

Turizm xizmatlari bozorini rivojlantirish bo'yicha amaliy tavsiyalar matritsasi

№	Tavsiya etilayotgan chora-tadbir	Mas'ul institut(lar)	Muddat	Kutilayotgan natija
1	Davlat-xususiy sheriklik mexanizmlarini kengaytirish, mehmonxona va transport infratuzilmasini modernizatsiya qilishda xususiy investitsiyalarni jalb etish	Turizm qo'mitasi, mahalliy hokimliklar, Turizmni qo'llab-quvvatlash jamg'armasi	2026-2028	Xalqaro standartga mos joylashtirish vositalari ulushining oshishi
2	Turizm kadrlarini tayyorlash tizimini xalqaro standartlar asosida takomillashtirish, amaliyotga yo'naltirilgan o'quv dasturlarini joriy etish	Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi, sohaviy OTMlar, Turizm qo'mitasi	2026-2027	Malakali kadrlar taqchilligining kamayishi
3	Yagona milliy raqamli turizm platformasini yaratish, sun'iy intellekt asosida sayyohlar oqimini bashoratlash tizimini joriy etish	Raqamli texnologiyalar vazirligi, Turizm qo'mitasi	2026-2027	Onlayn xizmatlar ulushi va boshqaruv samaradorligining oshishi
4	Mintaqaviy turizm klasterlarini shakllantirish orqali hududlarning tabiiy-madaniy salohiyatidan kompleks foydalanish	Viloyat hokimliklari, Turizm qo'mitasi	2026-2029	Hududlar bo'yicha turizm infratuzilmasining bir tekis rivojlanishi
5	Milliy turizm brendini xalqaro miqyosda targ'ib qilish bo'yicha maqsadli	Turizm qo'mitasi, Tashqi ishlar vazirligi, diplomatik	2026-2030	Xorijiy sayyohlar sonini 20 mln kishigacha

	marketing strategiyasini ishlab chiqish	vakolatxonalar		yetkazish
6	Ekoturizm va agroturizm kabi barqaror turizm shakllarini rivojlantirish	Ekologiya va atrof-muhitni muhofaza qilish qo'mitasi, Turizm qo'mitasi	2026-2030	YaIMdagi ulushni 7%ga yetkazishga qo'shimcha hissa, ekologik barqarorlikni saqlash

Manba: muallif tomonidan ishlab chiqilgan.

Xulosa qilib aytganda, turizm xizmatlari bozorini rivojlantirish nafaqat iqtisodiy, balki ijtimoiy va madaniy ahamiyatga ega bo'lgan strategik vazifa hisoblanadi. Ushbu sohani statistik ma'lumotlar, SWOT-tahlil va "omil-samara" modeliga asoslangan kompleks va tizimli yondashuv orqali rivojlantirish milliy iqtisodiyotning barqaror o'sishini ta'minlash, aholi bandligini oshirish va mamlakatning xalqaro turizm bozoridagi raqobatbardoshligini mustahkamlashning muhim omili bo'lib xizmat qiladi. Tavsiya etilgan chora-tadbirlarning izchil amalga oshirilishi, ayniqsa joylashtirish vositalari sifatini oshirish va kadrlar tayyorlash yo'nalishlarida, davlat tomonidan belgilangan 2030-yilgi maqsadli ko'rsatkichlarga (20 mln sayyoh, YaIMning 7%i) erishish uchun zaruriy shart hisoblanadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Adambayev A.R., Qodirova DS. Turizm sohasida tadbirkorlik muhitini sakllantirish va rivojlantirish omillari. "Экономика и социум" №10(136)-2 2025. <https://cyberleninka.ru/article/n/turizm-sohasida-tadbirkorlik-muhitini-shakllantirish-va-rivojlantirish-omillari/viewer>.
2. Amriddinova R.S. "Mehmonxona servisi xizmatini tashkil qilish" O'quv qo'llanma. SamISI, 2012.
3. Axmedov U.X. Mehmonxonalarning mamlakat iqtisodiyotidagi o'rni va ahamiyati, mehmonxona xizmatlari sifati va samaradorligini boshqarish xususiyatlari // Milliy tovarlar raqobatbardoshligini oshirishda zamonaviy marketing konsepsiyasidan foydalanish mavzusidagi respublika ilmiy-amaliy anjumani. Toshkent, 2018-yil 27-noyabr.
4. BusinesStat. O'zbekistonda mehmonxona xizmatlari bozori tahlili, 2020-2024 yy., prognoz 2025-2029 yy. Moskva, 2024.
5. Guliaev V.G. Turizm: ekonomika i sotsial'noe razvitie [Tourism: economic and social development]. Moscow, Finansy i statistika Publ., 2003, 304 p.
6. Iqtisodiy tadqiqotlar va islohotlar markazi (ITIM). O'zbekiston turizmi: 7 yilda qanday o'zgarishlar bo'ldi? Tahliliy hisobot, 2025-yil sentabr. URL: <https://vaqt.uz>
7. Ritchie, J.R.B., & Crouch, G.I. (2003). The competitive destination: A sustainable tourism perspective. Wallingford: CABI.
8. Saaty, R.W., 1987. The analytic hierarchy process and SWOT analysis: what it is and how it is used, Math. Model. McGraw Hill, p. 268.
9. Sayfutdinov Sh.S. O'zbekistonda mehmon uylarini tashkil etishda xalqaro tajriba // "Iqtisodiyot va innovatsion texnologiyalar" ilmiy elektron jurnali. № 3, may-iyun, 2019.
10. Turizm qo'mitasi ma'lumotlari // Gazeta.uz. "O'zbekistonni 4 oyda 4 million turist tashrif buyurdi", 2026-yil 19-may. URL: <https://www.gazeta.uz>
11. O'zbekiston Respublikasi Milliy statistika qo'mitasi. Turizm statistik to'plami hamda xorijiy fuqarolarning turistik maqsadda tashrifiga oid operativ ma'lumotlari, 2023-2025. URL: <https://stat.uz>
12. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Xorijiy turistlar oqimini sezilarli darajada oshirish va ichki turizmni yanada faollashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi Farmoni, 2024-yil yanvar.

13. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining PQ-238-son Qarori. Turizm sohasida davlat qo‘llab-quvvatlash chora-tadbirlari, 2023-yil 27-iyul.
14. O‘z DSt 3296:2023 “Turistik xizmatlar. Joylashtirish vositalari. Ball tizimi bo‘yicha tasniflash” davlat standarti. O‘zbekiston agentligi texnik tartibga solish, 2023-yil 7-iyul.
15. O‘zbekiston Respublikasi Milliy statistika qo‘mitasi. Joylashtirish vositalari reyestri bo‘yicha ma‘lumotlar, 2024.

«MA'MUN SCIENCE» JURNALI

ЖУРНАЛ «MAMUN SCIENCE» JOURNAL OF «MAMUN SCIENCE»

Maqolani tayorlashda qo'yiladigan talablar:

1. Maqola o'zbek, ingliz va rus tillarida minimal 6 sahifadan iborat bo'lib, Microsoft Word dasturida Times New Roman shriftida 12 kegl, 1 satr oralig'ida, sahifalar barcha tomondan 2 sm qoldirilgan holda bo'lishi shart.
2. Satr boshi - 1,25 sm bo'lib, satrlarni eniga to'g'irlash, so'zlarni boshqa qatorda ko'chirish avtomatik tarzda bo'lishi lozim.
3. Birinchi qator o'ng tomondan muallifning familiyasi, ismi va otasining ismi, ikkinchi qatorda muallifning ish joyi, lavozimi, ilmiy darajasi va unvoni, e-mail va telefon raqami, uchinchi qatorda sahifaning o'rtasida bosh va qalin harflar bilan maqolaning nomi yoziladi. Ushbu ma'lumotlar o'zbek, ingliz va rus tillarda berilishi lozim.
4. Keyingi qatordan o'zbek, ingliz va rus tillarida 60 so'zdan iborat annotatsiya beriladi.
5. Keyingi qatordan 7-10 ta o'zbek, ingliz va rus tillarida kalit so'zlar beriladi.
6. Keyingi qatordan asosiy matn boshlanadi va maqola 4 qismdan iborat bo'ladi: Mavzuning dolzarbligi. Metodlar va o'rganilganlik darajasi. Tadqiqot natijalari. Xulosa.
7. Maqolalar ilmiy ahamiyatga ega bo'lib, ulardagi fakt va fikrlar asoslangan hamda mustaqil ma'no kasb etishi lozim, plagiat holati taqiqlanadi. Muallif foydalanilgan adabiyotlarni aniq ko'rsatishi, olingan iqtiboslarning aniq manbalarini keltirishi lozim.
8. Web of science hamda Scopus tizimidagi jurnallardan iqtiboslar olish maqsadga muvofiqdir.
9. Iqtiboslar matn ichida [1, 25] beriladi. Adabiyotlarning to'liq ro'yxati asosiy matndan so'ng alifbo tartibida ko'rsatilishi lozim.

Требования к оформлению научной статьи:

1. Статьи должны содержать 6 страниц, в формате Times New Roman на Microsoft Word, 12 кегль, 1 см, со всех сторон 2 см.
2. Начала абзаца - 1,25 см, формировать строки по ширине, перенос слов в другой ряд должен быть в автоматическом порядке.
3. В первой строке от правой стороны Ф.И.О. автора, во второй строке место работы, должность, ученая степень и ученое звание, e-mail и номер телефона, в третьей строке по центру страницы прописными буквами жирным шрифтом название статьи. Эта информация должна быть предоставлена на узбекском, английском и русском языках.
4. В следующей строке аннотация из 60 слов на трех языках: узбекский, английский и русский.
5. Со следующей строки ключевые слова 7-10.
6. Далее начинается основной текст. новой текст начинается со следующей строки, и статья состоит из 4 частей: актуальность темы, методы и уровень исследования, результаты исследования, заключение.
7. Статьи должны иметь научное значение, факты и идеи должны быть обоснованными и избежать плагиатства. Автор должен точно указать использованную литературу и ссылку на источники, при помощи которых он выразил свое мнение.
8. Сноски или ссылки должен быть взяты из Web of science, а также системы журналов Scopus.
9. Цитирование приводится в тексте [1, 25] Полный список литературы должен быть указан после основного текста, а алфавитном порядке.

Requirements of the articles submitted:

1. Articles should be at least 6 pages, in Times New Roman, 12 pt., 1 inter.
2. The line head should be 1,25 cm, line spacing, and the words should be automatically moved.
3. The author's full name should be on the first line from the right; the author's place of work, position, academic degree, and academic rank, email address, and phone number should be on the second line; the article title should be centered in bold, capital letters, on the third line. This information should be provided in Uzbek, English, and Russian.
4. An annotation of 60 words in the next line in three languages.
5. Key words from the next row in three languages 7-10.
6. The next line begins with the main text. The main text begins on the next line, and the article consists of four parts: the relevance of the topic, the methods and level of research, the results, and the conclusion.
7. Articles must be of scientific importance and facts and opinions in the article should be well-grounded and have an independent meaning, and they must be free of plagiarism. The author must clearly demonstrate the literature used in his or her opinion, and provide the exact sources of the extracts.
8. Quotes should be from "Web of science" and "Scopus" journals.
9. A complete list of publications should be followed in alphabetical order after the main text. Seals and references should be in the main text [1, 25].